
Human Thinking and Language, Their Interrelation: A Theoretical Analysis within the Framework of Cognitive and General Linguistics

Xikmatullayeva Mohichexra Latifjon qizi
xikmatullayevamohichexra@gmail.com
Doctoral researcher,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This article analyzes the relationship between language and thinking from the perspectives of general and cognitive linguistics. The role of language in the formation, preservation, and transmission of knowledge in human consciousness is highlighted. Furthermore, the stages of studying the relationship between language and thinking, cognitive processes, and the inseparable connection between thinking and language are revealed on the basis of scientific sources. During the research, descriptive, comparative, and cognitive analysis methods are employed. In addition, it is noted that language and thinking have been studied not only in modern times but also throughout history by our great ancestors. The main purpose of the study is to comparatively and theoretically analyze the study of the relationship between language and thinking in general and cognitive linguistics. The article summarizes the views on language and thinking expressed by foreign scholars such as Wilhelm von Humboldt, Edward Sapir, and Benjamin Lee Whorf, as well as great Uzbek thinkers Alisher Navoi and Ibn Sina, together with the representative of modern cognitive linguistics Sh. Safarov. This research briefly concludes how scholars have studied the relationship between language and thinking in general and cognitive linguistics.*

Keywords *General linguistics, cognitive linguistics, language, thinking, definition of language, thinking process, cognitive analysis, language and consciousness, concept, cognitive function of language*

Inson tafakkuri va til, ularning o'zaro bog'liqligi: kognitiv va umumiy tilshunoslik kesimida nazariy tahlil

Xikmatullayeva Mohichexra Latifjon qizi
xikmatullayevamohichexra@gmail.com
Tayanch doktorant,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada til va tafakkur munosabatlari umumiy hamda kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tilning inson ongidagi bilimlarni shakllantirish, saqlash va uzatishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, til va tafakkur munosabatlarining o'rganilish bosqichlari, kognitiv jarayonlar hamda tafakkurning til bilan uzviy aloqasi ilmiy manbaalar asosida ochib beriladi. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy va kognitiv tahlil metodlaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, til va tafakkur nafaqat bugungi kunda balki, tarixda ham buyuk bobokalonlarimiz tomonidan o'rganilganligi ko'rib o'tiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi til va tafakkur munosabatlarining umumiy va kognitiv tilshunoslikda o'rganilishining qiyoslash va nazariy jihatdan tahlil qilish hisoblanadi. Maqolada, Wilgelm fon Gumboldt, Edward Sapir, Benjamin Lee Whorf kabi chet-el olimlari bilan bir qatorda buyuk o'zbek mutafakkirlari Alisher Navoiy va Ibn Sinolarning va zamonaviy kognitiv tilshunoslik*

vakili bo'lmish Sh. Safarovlarning til va tafakkur haqida bildirgan fikrlari jamlangan. Mazkur tadqiqotda til va tafakkur munosabatlarining umumiy va kognitiv tilshunoslikda olimlar qay holatda o'rganganlari qisqacha xulosalangan.

Kalit so'zlar *Umumiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, til, tafakkur, til ta'rif, tafakkur jarayoni, kognitiv tahlil, til va ong, konsept, tilning kognitiv funksiyasi*

Человеческое мышление и язык, их взаимосвязь: теоретический анализ в аспекте когнитивного и общего языкознания

**Хикматуллаева Мохичехра
Латифжон кизи**

xikmatullayevamohichexra@gmail.com

Базовый докторант,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Аннотация *В данной статье рассматриваются взаимоотношения языка и мышления с точки зрения общего и когнитивного языкознания. Освещается роль языка в формировании, хранении и передаче знаний в сознании человека. Также на основе научных источников раскрываются этапы изучения взаимосвязи языка и мышления, когнитивные процессы и неразрывная связь мышления с языком. В ходе исследования используются описательный, сравнительный и когнитивный методы анализа. Кроме того, рассматривается, что язык и мышление изучались не только в современности, но и великими предками в истории. Основной целью исследования является сравнительный и теоретический анализ изучения взаимоотношений языка и мышления в общем и когнитивном языкознании. В статье собраны взгляды на язык и мышление зарубежных ученых, таких как Вильгельм фон Гумбольдт, Эдвард Сепир, Бенджамин Ли Уорф, а также великих узбекских мыслителей Алишер Навои и Ибн Сина, а также представителя современной когнитивной лингвистики Ш. Сафаров. В данном исследовании кратко обобщено, каким образом ученые изучали взаимоотношения языка и мышления в общем и когнитивном языкознании.*

Ключевые слова *Общее языкознание, когнитивная лингвистика, язык, мышление, определение языка, процесс мышления, когнитивный анализ, язык и сознание, концепт, когнитивная функция языка*

Kirish

Umumiy tilshunoslikning asosiy o'rganish obekti bo'lgan – til, yaqin yillar davomida grammatik, sintaktik va struktur jihatdan o'rganishdan tashqari, inson ongi bilan bog'liq holda o'rganilib kelinmoqda. Insonni inson qilib turadigan 3 ta narsasi bor. Bular uning tili, madaniyati va ongidir. Ana shu uchta narsa

orqali biz insonlar hayvonlardan va boshqa tirik jonzotlardan farq qilamiz. Shu sababli ham til va tafakkur tilshunoslik fanining asosiy o'rganish obekti hisoblanadi.

Umumiy tilshunoslikda til va tafakkur munosabatlari keng va ko'p yo'nalishda talqin qilinadi. Til va tafakkur munosabatlari turli ilmiy maktablarda turlicha yondashuv asosida

o'rganilgan. Til – tafakkur ifodasi, tafakkur esa tilga jon baxsh etuvchi ichki mazmundir. Shu sababli, til va tafakkurni o'rganish umumiy tilshunoslikdagi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi (Amonilloeva, 2025). Bu ikki jarayon nihoyatda murakkab bo'lib, u tilshunoslikdan tashqari falsafa, mantiq, psixologiya, fiziologiya fanlari bilan ham aloqador hisoblanadi. Til va tafakkur munosabatlari faqat bugunga kelib o'rganilayotgan hodisa emas, bu ikki hodisa buyuk bobokalonlarimiz tomonidan tarixda ham yetarlicha o'rganilgan. Buyuk bobokalonimiz tib ilmining sultoni, Ibn Sino tomonidan tabiiy til tafakkur belgisi sifatida har tomonlama o'rganilgan, Uning fikricha, fikr va nutq, til va tafakkur o'rtasida doimiy aloqa mavjud. Bundan tashqari, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zining 'Muhokamat ul-lug'atayin' asarida til va tafakkurni bir-biridan ajratmagan holda, ular to'g'risida shunday yozgan edi. Kishining ko'ngli (fikri daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosdir. Dur xilma-xil bo'lgani singari, so'z ham bir xil bo'ladi degan fikrlarni bildirgan. Darhaqiqat til va tafakkur hodisasi bir-birini to'ldiruvchi, bir-biriga bog'liq bo'lgan jarayonlardir. Ayniqsa, zamonaviy yo'nalishlarda til faqat kommunikativ vosita emas, balki, konseptual fikrlash va bilimlarni tartibga solish mexanizmi sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Umumiy tilshunoslikda til muammosi ko'plab o'rganilgan. Tilshunoslik tarixida Vilgelem fon Gumboldt, Ivan Boduen de Kurtenelar bilan bir qatorda turuvchi ulkan tilshunoslardan biri shvesariyalik fransuz Ferdinand de Sossyurdir. U ham til ta'rifini masalasiga alohida e'tibor bergan: uning ta'rificha tilshunoslik fanining yagona va haqiqiy predmeti til bo'lib, u aloqa quroli vazifasini bajaradi. Til mohiyat (substansiya) emas, balki shakldir (formadir), degan o'ziga xos ta'rifni o'rtaga tashlaydi. Bu bilan u tilni mazmun, mohiyat (substansiya) bilan qorishtirmaslik, undan farqlash lozimligini, til u yoki bu mazmunni (fikrni) ifodalash shakli

(formasi), vositasi ekanligini nazarda tutadi. Ferdinand de Sossyur qarashlarida tilning sistem xarakterga egaligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Shunga ko'ra, u til belgilar sistemasidir (Sossyur, 1977) degan ta'rifni ham beradi. Bundan ko'rinadiki, Ferdinand de Sossyur tilni sistema sifatida o'rganib, mazmunni ifodalovchi vosita sifatida ta'riflaydi. Umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi, til ilmining buyuk bilimdoni yevropalik Vilgelim Fon Gumboldt esa til masalalariga – tilning ta'rifini muammosiga alohida jiddiy ahamiyat bergan. U vafoti oldidan o'zining eng muhim uch tomli "Yava orolidagi kavi tili haqida" nomli ishining "Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri" deb nomlanuvchi kirish qismida umumiy antinomialarni qo'llaydi. Uning antinomialari quyidagilarda namoyon bo'ladi: Til va tafakkur antinomialari. Til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqazo qiladi, talab qiladi. Tafakkur (fikr) til orqali yuzaga chiqadi. Shunga ko'ra, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yo'q. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular birgalikda, o'zaro bog'liqlikda "yashaydi", insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi (Rasulov, 2010). A.A. Potebnya ta'limotining asosiy g'oyasi ham til va tafakkur masalasi bo'lgan, uning fikricha fikrning hosil bo'lishi va o'zining ifodasini topishi, voqeilanishi til yordamida yuzaga keladi va u tilni faqatgina fikrlash jarayoni bilan emas, balki inson psixikasi bilan bog'laydi. Olim til va tafakkurni bir-biridan ajratmasdan, o'zaro bog'liq holda oladi va shu bilan birga mantiqiy va lisoniy kategoriyalarning o'ziga xosligini ham ta'kidlaydi.

XX asrning 30-yillarida ikki amerikalik olim Edvard Sapir (1884-1939) va Benjamin Li Uorf (1897-1941) tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya – keyinchalik lingvistik nisbiylik gipotezasiga aylangan bo'lib, unda tilning o'ziga xos bo'lgan tuzilma bilan birga, tafakkurning shakllanishiga va dunyoni anglash

usuliga ta'sirini o'rganilgan. Sapir-Uorf gipotezasining ma'nosi shundan iboratki, tining tuzilishi inson tafakkuriga va uning atrofdagi dunyoni boshdan kechirishiga shakllantiruvch ta'sir ko'rsatadi. Uning asosiy shartlariga ko'ra, turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar atrofdagi dunyoning asosiy toifalarini, masalan, mulk, miqdor, son, makon, vaqt va boshqalarni idrok etishda farq qiladi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda nazariy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan bo'lib, umumiy tilshunoslik hamda kognitiv tilshunoslikka oid ilmiy manbaalar o'rganildi va ularning asosiy nazariy qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jaryonida, avvalo, til va tafakkur munosabatiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Bunda Wilhelm fon Humboldt, Edward Sapir, Benjamin Lee Whorf, A.A. Potebnya kab olimlarning nazariy qarashlari o'rganildi hamda qiyosiy tahlil qilindi. Ayniqsa, til va tafakkur munosabatlarining umumiy va kognitiv tilshunoslikdagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda tavsifiy metod asosiy usullardan biri sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida til va tafakkur munosabatlariga oid nazariy qarashlar tizimli ravishda izohlandi, tilning kommunikativ va kognitiv funksiyalari tavsiflandi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod orqali umumiy tilshunoslik va kognitiv tilshunoslikdagi yondahuvlar o'zaro solishtirildi. Jumladan struktural tilshunoslik tilni asosan grammatik va kommunikativ tizim sifatida talqin qilishi, kognitiv tilshunoslik esa tilni inson ongidagi bilimlar tizimi bilan bog'liq holda o'rganishi tahlil qilindi (Lakoff, Johnson, 1980). Ushbu metod turli ilmiy maktablarning til va tafakkurga bo'lgan qarashlarini aniqlash hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatishga xizmat qiladi.

Natijalar

Til va tafakkur munosabatlarini umumiy va kognitiv tilshunoslikda nazariy jihatdan tahlil qilganimizda bir qator muhim natijalarga erishdik. Tahlillar natijasida kognitiv jihatdan til

va tafakkur o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Til inson fikrini ifodalash vositasi hamda tafakkurning shakllanishiga asos bo'luvchi omil hisoblanadi.

Umumiy tilshunoslikda til ko'proq grammatik va kommunikativ tizim sifatida talqin qilinsa, kognitiv tilshunoslikda u inson ongidagi bilimlar va konseptual tuzilmalar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu esa nafaqat aloqa vositasi, balki bilimlarni tashkil etuvchi mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, umumiy va kognitiv tilshunoslikning til hamda tafakkurga yondashuvi o'rtasida muayyan farqlar ham mavjudligiga guvoh bo'ldik. Jumladan umumiy tilshunoslikda til asosan grammatik, fonetik, kommunikativ tizim sifatida o'rganilsa, kognitiv tilshunoslikda til birliklarini inson ongidagi konseptual tizimlar, bilimlar bazasi va tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, kognitiv tilshunoslik tilni inson ongidan ajralmagan holda o'rganishini ko'rsatadi.

Til va tafakkur ko'plab olimlar tomonidan uzoq yillar davomida o'rganilib kelinayotgan vositadir. Bunda, Ferdenant de Sossyur tilni sistema sifatida o'rgangan va uni tafakkurni ifodalovchi vosita deb ta'riflaydi. Whilgelm fon Gumboldt esa, til va tafakkurni bir-birini taqazo qiluvchi, talab qiluvchi ikki unsur sifatida ko'radi va tilsiz tafakkur, tafakkursiz esa til bo'lmasligini ta'kidlaydi. A.A. Potebnya ta'limotida til faqatgina fikrlash jarayoni bilangina emas, balki, inson psixikasi bilan bog'lanadi. Tadqiqot davomida ikki buyuk amerikalik olimlar Edward Sapir va Benjamin Lee Whorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi ham o'rganildi, unga ko'ra, tining tuzilishi inson tafakkuriga va uning atrofdagi dunyoni boshdan kechirishiga shakllantiruvch ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi natijalardan, til va tafakkurning umumiy va kognitiv tilshunoslikdagi o'xshash va farqli jihatlari ko'rishimiz mumkin.

Muhokama va Tahlillar

Til va tafakkur munosabati yuzasidan turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotchilar ularning o'zaro bog'liqligini tan

oladilar (Sapir, 1921). Kognitiv tilshunoslik jihatidan oladigan bo'lsak, inson ongidagi bilimlar til orqali namoyon bo'ladi.

Ko'plab adabiyotlarda til va tafakkur bir hodisa deb tushunish xato, chunki, til fonetika, grammatika qonunlari asosida tashkil topgan qonunlar tizimi sifatida grammatika fanida o'rganilsa, tafakkur esa mavjud birliklarning inson ongida voqeilanishning oliy shakli sifatida mantiq fanida o'rganiladi deya ta'kidlanadi. Lekin ularni butunlay boshqa-boshqa hodisa ham deb ham aytolmaymiz, ular bir-biriga bog'langan ikki hodisalardir. Bulardan biri bo'lmasa ikkinchisining yuzaga chiqishi qiyinlashadi. I.P.Pavlovning fikricha, insonning fikrlash jarayonida tilning ahamiyati katta va fikr til orqali amalga oshishi mumkin. Uning fikricha inson borliqni ikki xil yo'l bilan anglaydi, ya'ni, narsa-buyum va hodisalarning kishining sezish organlariga (eshitish, sezish, ko'rish) bevosita ta'siri orqali-bu birinchi signal sistemasi deyilsa, so'zlarning ta'siri orqali sezishi ikkinchi signal sistemasi deyiladi. Va mana shu ikkinchi signal sistemasi til tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, faqat insonga xosdir. Bu yerda biz borliqni o'rganishda tilning tafakkur vositasi sifatidagi rolining buyukligini ko'rishimiz mumkin. Bu ikkala hodisa o'zaro bir-biriga bog'langan va bir-birisiz rivojlana olmaydi. Bu borada tilshunos olimlar ko'plab bahs-munozaralar olib borishgan. Xususan, o'zbek tilshunos olimi Ravshanxo'ja Rasulov ham umumiy tilshunoslikda til va tafakkur muammolariga alohida e'tibor qaratgan, til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mavjud emasligida, biri tabiiy holda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo'lishida: ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, "tashqi" hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy "ichki" hodisaligida ko'rinadi. Til ham tafakkur ham muayyan bir butunlikning o'zaro bog'liq va ayni vaqtda o'zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir (Rasulov, 2010).

Kognitiv yondashuv vakillari, xususan, Ronald Langacker lingvistik struktura insonning

umumiy psixologik va bilish mexanizmlaridan ajratib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, til genetik asosga ega bo'lishi mumkin, biroq uning real shakllanishi va funkcionallashuvi tajriba, ijtimoiy muhit hamda psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli lingvistik qobiliyatni boshqa kognitiv jarayonlardan keskin ajratish ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas.

Voqelikni aks ettirish to'g'ridan-to'g'ri tilning vazifasiga kirmaydi, bu vazifani dastlabki o'rinda tafakkur bajaradi. Lekin tafakkurda yuzaga kelgan mental tuzilmalar til tizimida o'z ifodasini topadi. So'z xuddi boshqa til birliklaridek, alohida bir predmetni yoki voqeani atovchi oddiy bir yorliq bo'lmasdan, balki voqelikni bilish vositasidir. Lisoniy birliklar vositasida axborot yig'iladi, saqlanadi va avloddan-avlodga o'tadi. Bir so'z bilan aytganda, til birliklarining kognitiv jarayon kechishidagi o'rni alohida e'tiborga loyiqdir (Safarov, 2006).

Tafakkur va lisoniy kesishish maydonida axborot faoliyati yuzaga keladi. Inson uchun tafakkur atrof-muhit bilan o'zaro munosabatga kirishish vositasidir. U orqali voqeilik farqlanadi, hissiyot organlari va miya tomonidan qabul qilinayotgan amaliy faoliyatga jalb etiladi. Bu jarayonlarning barchasi til orqali boshqalarga yetkaziladi. Kognitiv tilshunoslikda bu ikki munosabat markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv yo'nalishda til shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson ongining bir qismi sifatida ko'riladi. Bu yo'nalishda tafakkur tilni shakllantiradi, ya'ni inson avval tushunadi, keyin ifodalaydi. Til esa tafakkurni ya'naltiradi, ya'ni qanday fikrlashimizga ta'sir qiladi. Kognitiv yondashuvda inson ongida "konseptlar tizimi" mavjud bo'ladi. Til ana shu konseptlarni ifodalash vositasidir, va bilimlarni saqlaydi, ularni tartiblaydi va nihoyat bilim hosil qilishda ishtirok etadi. Til va tafakkur bir tizimning ikki tomoni, bir-birini shakllantiradi, til orqali tafakkur strukturasini ochiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda til tafakkurni to'liq belgilab bermasligi, balki unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi qayd

etiladi (Uorf, 1956). Inson tafakkuri biologik, psixologik va ijtimoiy omillar bilan ham shakllanishini ko'rsatadi. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi tilni inson ongidan ajratmagan holda o'rganish kerakligini va bu yo'nalish orqali tilshunoslikni psixologiya, neyrologiya va sun'iy intellekt kabi fanlar bilan integratsiyalashuviga olib kelmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, til va tafakkur inson faoliyatining o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki muhim komponenti hisoblanadi. Umumiy tilshunoslik tilning strukturaviy va

kommunikativ jihatlarini o'rgansa, kognitiv tilshunoslik tilni inson ongidagi konseptual tizimlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Natijalardan ko'rinadiki, til inson tafakkuriga ta'sir ko'rsatuvchi, tafakkur esa til taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Shunday ekan, til orqali inson dunyoni anglaydi, bilimlarni tizimlashtiradi va ijtimoiy tajribani avloddan avlodga o'tkazadi. Kelajakda, til va tafakkur munosabatlarini neyrolingvistika, sun'iy intellekt va raqamli kommunikatsiya doirasida o'rganish ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

References:

1. Amonilloeva, D. Sh. (2025). *Til va tafakkur o'zaro aloqasi: Falsafiy tahlil*. Luch, 57(1). <https://journalss.org/index.php/luch/>
2. de Saussure, F. (1956). Kurs obshchey lingvistiki (izvlecheniya). In *Khrestomatiya po istorii yazykoznaniya XIX–XX vekov*. 336–337. Moskva.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors we live by*. University of Chicago Press.
4. Rasulov, R. (2010). *Umumiy tilshunoslik*. Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi.
5. Safarov, S. (2006). *Kognitiv tilshunoslik*. Sangzor.